



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

URBANIZATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGIGA
TA’SIRI

Qurbonboyeva Farzona
e-mail:farzonaqurbonboyeva123@gmail.com
O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi

Annotatsiya:Ushbu maqolada biz urbanizatsiya o‘zi nima, uning jarayoni, mintaqaviy xususiyatlari va zamonaviy urbanizatsiya ko‘rinishi bo‘lgan megalopolislar o‘rganib chiqamiz. Urbanizatsiya jarayoni natijasida qishloq hududlaridan shaharlarga migratsiya kuchayib, ishchi kuchi kamayadi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmiga ta’sir o‘tkazadi. Shu bilan birga O‘zbekistonda ushbu jarayonining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: urbanizatsiya, megalopolis, migratsiya, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, yer resurslari, bozor iqtisodiyoti, optimallashtirish, kompleks rivojlanish.

Аннотация:В этой статье мы будем изучать, какова урбанизация, ее процесс, региональные особенности и мегаполис, которые являются современной урбанизацией. В результате процесса урбанизации сельские районы усиливают миграцию в города и снижают рабочую силу и влияют на сельскохозяйственное производство. В то же время мы анализируем специфику этого процесса в Узбекистане.

Ключевые слова: урбанизация, монегополис, миграция, сельское хозяйство, экология, земельные ресурсы, экономика рынка, оптимизация сложное развитие.

Annotation:In this article, we will study what the Urbanization is, its process, regional features, and megalopolis that are modern urbanization. As a result of the urbanization process, rural areas intensifies migration into cities and reduce the



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

workforce and affect agricultural production. At the same time, we analyze the specific aspects of this process in Uzbekistan.

Keywords: urbanization, monegopolis, migration, agriculture, ecology, land resources, market economics, optimization, complex development.

Urbanizatsiya (fransuzchada - urbanisation, inglizchada - urbanization, lotinchada -urbanus-shaharga mansub, urbs -shahar)-jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. U tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo‘lgan ko‘p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Uning torroq doiradagi demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog‘ining ko‘payib borishini anglatadi. Dastlabki shaharlar mil. av. 3-1ming yilliklarda Misrda, Mesopotamiya, Suriya, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy, Hindixitoy, shuningdek, Yevropa va Afrikaning O‘rta dengiz sohillarida vujudga kelgan. Yunon Rim dunyosida esa Rim va Karfagen shaharlarining mavqei yuqori bo‘lgan. O‘rta asrlar va uyg‘onish davrida kapitalistik ishlab chiqarish unsurlari shakllana boshladi[1]. Bu jarayon shaharlarda aholi sonining o‘sib borishiga, konsentratsiyalashuviga olib keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo‘la boshladi. Shaharlar barcha zamonlarda rivojlanish uchun turtki bo‘luvchi asosiy nuqtalar sifatida xizmat qilib kelgan. Ularning bu xususiyati fan-texnika taraqqiyotidan keyin ayniqsa umumjahon mezoniga aylandi. Bugungi kunda mamlakatlarning industrial va texnologik va hokazo mezonlar bilan belgilanuvchi rivojlanish darajasi urbanizatsiya darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Urbanizatsiya jarayoni, shuningdek, yirik shaharlar atrofidagi sun‘iy yo‘ldosh shaharlar tarmog‘ini kengaytirish va urbanizatsiya rivojlanishining muhim jihati bo‘lgan ayrim



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

shaharlarning birlashuvi bilan birga keladi, bu esa o‘z navbatida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yirik va yirik shaharlarni tushirish, shuningdek, uy-joylarni joylashtirish va avtomobil trafigini optimallashtirish imkonini beradi. Urbanizatsiyaning asosiy maqsadi shahar va shahar aglomeratsiyalarining kompleks rivojlanishi hisobiga barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘lib, ular mehnat va investitsiya resurslariga jozibador bo‘ladi.

Aglomeratsiya – lotincha «aglomerat» to‘planish degan ma‘noni bildiradi va shahar aholi punktlarida ishlab chiqarish vositalari, ya‘ni korxonalar, shuningdek mehnat resurslarining taqsimoti jarayonida shakllanadi. Aglomeratsiyalar mamlakatlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining bir mezoni sifatida qaraladi. Aglomeratsiyalar rivojlangan urbanizatsiya bosqichining yuqori darajasi bo‘lib, uning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ahamiyati nihoyatda yuqoridir[2]. Aglomeratsiyalar shakllanishida ikki xil tip ajratiladi: Monotsentrik – bunda aglomeratsiyalar bitta yirik shahar atrofida yo‘ldosh shaharlarning paydobo‘lishi va ular o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning rivojlanishi kuzatiladi. Politsentrik -aglomeratsiya hosil bo‘lishida markaziy o‘rinni bir-biriga teng bo‘lgan bir necha shahar egallaydi. Aglomeratsiyalarda bir qancha muammolar, xususan ekologik muammolarning o‘tkirlashuvi hisobiga aglomeratsiya aholisining shahar chetlariga ko‘chib o‘tishi kuchayib boradi. Bu shakllanishdagi shaharlarga misollar: Tokio, Nyu-York, Moskva, London, Parij, Pekin, San-Paulu. O‘zbekistonda aglomeratsiyaga misol qilib Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro shaharlarini olish mumkin. Aglomeratsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo‘lib, sanoat, savdo, transport va trli tarmoqlarining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi[3]. O‘zbekistondagi urbanizatsiya jarayonining namunasi bu -uning poytaxti Toshkent. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti qulay, tekislik hududlari qadimiy markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda tarixi bir necha asrlarga teng bo‘lgan shaharlar



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

ko‘pchilikni tashkil qiladi. So‘nggi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat shaharlarning zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lishiga sababchi bo‘lmoqda. Urbanizatsiya qishloq xo‘jaligiga ta‘siri ijobiy va salbiy tomonlari bor. Qishloqlar aholisining shaharlarga ko‘chib o‘tishi va iqtisodiy rivojlanishdagi bir qancha muvaffaqiyatlar mamlakatni urbanizatsiyalashayotgan davlatga aylantirmoqda. Bu o‘zgarish albatta yaxshi, lekin agrar sohaning susayishiga olib kelishi mumkin. Urbanizatsiyaning ijobiy ta‘sirlari shundan iboratki, yo‘llar, elektr tarmoqlari, suv ta‘minoti va internet tarmoqlari qishloq joylarga ham kirib boradi. Shaharlarning kengayishi tufayli sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari qishloqlarga kirib, yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Salbiy tomonlari esa aholining ko‘pchiligi shaharga ko‘chishi oqibatida qishloqlarda aholi soni kamayadi va ishchi kuchi yetishmovchiligi vujudga keladi. Qishloq odatlari va madaniyati asta-sekin shaharlashib, xo‘jalik yerlarining qurilish uchun ajratilishi ekotizmga va uy-joy va yer narxlari ko‘tarilib, mahalliy aholi uchun turli iqtisodiy-ijtimoiy qiyinchiliklar keltiradi. Umuman olganda, urbanizatsiya qishloq joylariga rivojlanish olib kelishi mumkin, lekin u yaxshi boshqarilmasa, muammolarga ham sabab bo‘lishi ehtimoli bor. O‘zbekistonning yirik shaharlarini rivojlantirish bo‘yicha strategik platforma va strategiya yaratilmoqda, bu esa ularni aholi uchun rivojlangan infratuzilma, ta‘lim, ish bilan ta‘minlash va ijtimoiy himoya qilish salohiyatiga ega o‘ziga xos tortishish markazlariga aylantirish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, hududlardagi migratsiya mahalliy xarakterga ega bo‘lishiga imkon beradi, shu bilan uni poytaxtga emas, balki har bir mintaqaning yirik shaharlariga yo‘naltiradi[4].

Xulosa

Urbanizatsiya zamonaviy jamiyat rivojlanishining muqarrar jarayoni bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga katta ta‘sir ko‘rsatadi. U ishlab



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining o‘shiga, infratuzilmaning rivojlanishiga va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga hissa qo‘shadi.

Shahar va qishloqlarni uyg‘un rivojlantirish, ekologik muammolarni hal qilish va aholi turmush sharoitlarini yaxshilash orqali urbanizatsiyaning ijobiy ta’sirlarini kuchaytirish mumkin. Urbanizatsiya bir tomondan kishilar yashash tarzini qulayliklar bilan ta’minlaydi, boshqa tomondan tabiiy tizimlarni sun’iy shakli bilan almashtiradi, atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo‘ladi, inson organizmiga kimyoviy, fizikaviy va psixologik yuklamani oshiradi. Urbanizatsiya jarayoni muvozanatli olib borilganda, u barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu sababli, urbanizatsiya siyosati uzoq muddatli strategik rejalarga asoslanishi va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev Murtoza Ismatullayevichning “Urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy tafovutlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi
2. <https://ziyonet.uz>
3. <https://uz.wikipedia.org>
4. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi